IFTIXOR – KADRLAR MA’NAVIYATINING MEZONI

Ilyos Quvondiqov
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Yangier filiali dotsenti, f.b.f.d. (PhD)

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat[1]”,
Shavkat Mirziyoev.

Annotatsiya: Maqolada mustaqillikdan g‘ururlanish hissini yoshlar ongiga singdirish yo‘llari, kadrlar salohiyatini yuksaltirishda ma’naviyatning, milliy iftixorning ahamiyati va namoyon bo‘lishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, milliy g‘urur, iftixor, ma’naviyat, mafkura, globallashuv, innovatsiya.

Ozbekiston Respublikasi mustaqillgining 35 yilligiga bagishlanadi.

O‘zbekiston Davlat mustakilligining salkam 35 yilligi asrlarga teng, mo‘jizaviy o‘zgarishlarni hayotimizga olib kirdi. Avvalo inson ulug‘landi, u o‘zligini tubdan qayta kashf etdi, o‘zini jamiyatning bir murvati deb emas, balki uning harakatlantiruvchi kuchi ekanligini anglab etdi. Har bir fuqaro o‘z so‘zi, uning istak va irodasi albatta, hisobga olinishini his etmoqda. Qonun ustuvorligini amalda bildi va uning rivojini kuzatib, unda bevosita ishtirok etib kelmoqda. Mustaqillik yilnomasini varaqlasangiz Vatanimizda o‘tayotgan yillarning har kunini ziynatlaydigan quvonchli, unutilmas voqealar yuz berganiga guvoh bo‘lamiz.

Uzoqqa bormay, o‘tgan mart oyining o‘zida bir nechta muhim tarixiy voqealarning o‘zi mamlakatimizning jahondagi maqomini yanada yuksaltirishga sabab bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Poytaxtimizda Islom tsivilizatsiyasi markazi va Samarqandda buyuk muxaddis bobomiz Al-Buxoriyning rekonstruktsiya qilingan ziyoratgohi ochilishi shular jumlasidandir. Ketma ket xalqaro anjumanlar, sport musobaqalari va hokazo tadbirlarga ham mamlakatimizning turli shaharlari mezbonlik qilmoqda. Yangiliklarni ongingizga singdirib ulgura olmaysiz, bular keyingi o‘n yilda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev boshlagan islohotlarning shiddati va amaliyotga oshayotgani tufaylidir.

Mustaqillikning dastlabki kunlariga nazar tashlasangiz, mamlakatimiz aholisining ertangi tinch-xotirjam kunini kafolatlash, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy ahvolini izchil rivojlantirib borish davlatning maqsad-muddaosi bo‘lganligini ko‘rasiz. Qariyb 130 yil mobaynida ma’naviyati toptalgan, o‘zligini deyarli unutgan, mutelikni qismat deb bilgan xalqni o‘z qaddini rostlashga o‘rgatish, uning kimligini tanitish, ajdodlarining jasoratga to‘la tarixini tiklash oson emasdi. Bunda respublika rahbarligini mustaqillikdan ikki yil burun zimmasiga olgan birinchi Prezident Islom Karimovning mehnati, jasorati va davlat arbobiga xos fazilatlarining ahamiyati muxim bo‘lganligini ta’kidlash kerak, albatta. Buni mustabidlik tuzumi hali tugab bitmagan davrda qabul qilingan “O‘zbekistonning Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun ham ko‘rsatib turibdi. Qonun xalqimiz ruxiyatini, ma’naviyatini tiklash yo‘lidagi unutilmas tarix bo‘lib qoldi.

Kommunistlar imperiyasi davlat mashinasi hali avji kuchda bo‘lgan davrda uning tarkibida bo‘lgan bir agrar respublikada mahalliy xalqning o‘z ona tiliga davlat tili maqomini e’lon qilishdek jasorat ko‘rsatishi markaz uchun boshqa respublikalarga “salbiy ibrat” namunasi bo‘lishi, shunday yorliq bilan siylanishi, rahbariyatga nisbatan qatag‘on siyosati amalga oshirilishi ham mumkin edi. Ana shunday xatarlarga qaramay ushbu qonun qabul qilindi va xalqimizning qalbida ozodlikka

1. Mirziyoev Sh.M. 2021 yil 19 yanvarda ma’naviyatni yuksaltirish bo’yicha o’tkazilgan videoselektordagi nutqidan.

bo‘lgan umid uchqunlari paydo bo‘ldi desak, bu ham haqiqatdir[1]. Bu xalqimizga o‘zgacha iftixor, ishonch va qudrat berdi, xalq rahbariyat atrofiga jipslashdi.

Mustaqillikni mustahkamlash O‘zbekistonda o‘ziga xos va mos bo‘lgan tamoyillar asosida, ya’ni bozor iqtisodiyotiga tadrijiy ravishda, bosqichma-bosqich o‘tilishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, qonun ustuvorligi va kuchli ijtimoiy siyosat kabi tamoyillar o‘tish davrida o‘zining nechog‘li hayotbaxsh ekanligini ko‘rsatdi va buni jahon afkor ommasi ham to‘la tan oldi.

Mustaqillik tufayli amalga oshirilgan ishlar xalqimizning asriy orzularini ro‘yobga chiqarishdagi ulug‘ niyatlariga qanot berdi, yuksak ko‘tarinkilik, yangicha bir ijtimoiy-ma’naviy muhit bunyod etildi. Masalan, 1991 yilning Alisher Navoiy yili deb e’lon qilinishi, undan keyin Amir Temur yili, Mirzo Ulug‘bek yili va hokazo allomalarimizning ruhlarini shod etish yo‘lidagi sa’y-harakatlar xalqimiz ruhiyatini yuksaltirdi, ularni dadilllik va ishonch bilan olg‘a borishga rag‘batlantirdi. Poytaxtimizning to‘rida, baland joyda bundan 35 yil avval qad rostlagan Alisher Navoiy xazratlarining ulkan siymolari go‘yo biz avlodlarga oq yo‘l tilab turgan duogo‘y ustoz, ota misol taassurot qoldiradi. Bunday g‘urur va iftixor bilan eslanadigan tarixiy voqea va hodislarni sanab ado qilish mushkul.

Mustaqillikni anglash katta mas’uliyat, ma’naviyat va mafkuradir. U har kuni g‘amxo‘rlik qilishni talab etadigan, qurilayotgan Yangi O‘zbekiston degan binoga munosib bir g‘isht qo‘yishni taqozo etadigan jarayondir. Quruq, deklarativ va’dabozliklar, gapdonlik mustaqillik binosiga foyda keltirmaydi, mustaqillik bularni xushlamaydigan jiddiy yukdir. Uni o‘z gardanida ko‘taradiganlar, jamiyatning ilg‘or qatlami bo‘lgan biz ziyolilar, nuroniylar zimmasiga ulkan vazifalar yuklaydi. Davlatimiz rahbari shularni nazarda tutib shunday degan edi: “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”[2],

Ma’lumki, XXI asr axborot asri, deb nom oldi va u strategiyaga aylanib ulgurdi. Keyingi yillarda bunga yana sun’iy intellekt degan butunlay yangi bir tushuncha qo‘shildi va u shiddat bilan jamiyatning barcha tarmoqlarini qamrab bormoqda. “Bugun insoniyat yangi tsivilizatsiya bosqichiga – sun’iy intellekt davriga dadil qadam qo‘ymoqda. Qaysi soha bo‘lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo‘ladi”[3], - dedi davlatimiz rahbari. Globallashuv sharoitida yashayotgan O‘zbekiston ham ana shu innovatsiyalar to‘lqinidan, qamrovidan chetda, sirtda bo‘lishi mumkin emas, bo‘lolmaydi ham. Globallashuvning to‘foni shunday narsaki, usiz yashab bo‘lmaydi va ayni paytda uning ba’zi shiddati va bosimiga chidab ham bo‘lmaydi.

Ana shunday sharoitda kadrlarni tayyorlash, ushbu keskin shart-sharoitlarga immunitet hosil qilish mamlakatlardan kadrlar tayyorlash ishiga tubdan yangicha, innovatsion yondashuvni talab etmoqda. Bunda deklaratsiyalar, chaqiriqlar bilan ish bitmaydi, sun’iy intellekt bobida ortda qolmaslik uchun Prezidentimiz mutasaddilar diqqatini shu masalaga tinmay tortmoqdalar, kadrlar tayyorlash ishini jahon standarti darajasiga etkazish uchun qancha resurs va mablag‘ bo‘lsa ajratishga topshiriq bermoqdalar. Gap ana shu e’tibor va g‘amxo‘rliklarni amaliy yo‘nalishga solish, ana shu intellektual maydonda Yangi O‘zbekistonning munosib o‘rnini egallashdan iborat. Shu talabga mos kadrlar armiyasini tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib turibdi. Ularning intellektual salohiyati bilan birga, ma’naviyatini yuksaltirish, ezgulik va poklik ruhida tarbiyalash, axborot makonidan oladigan ma’lumlotlarga taxliliy yondashuvni singdirish, sun’iy intellektdan maqsadli foydalanishni chuqur bilish lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizni isloh qilish va yangilashga qaratilgan dasturiy vazifalarni bajarishda

---

2. O’zbekistonning “Davlat tili to’g’risida”gi qonuni 1989 yil 21 oktyabrda – Mustaqilligimiz e’lon qilinishidan taxminan ikki yil ilgari qabul qilingan.

[2] Mirziyoev Sh.M. 2021 yil 19 yanvarda ma’naviyatni yuksaltirish bo’yicha o’tkazilgan videoselektordagi nutqidan.

[3] Mirziyoev Sh.M.2025 yil 21 oktyabrda sun’iy intellektga bag’ishlangan videoselekt ordagi nutqidan.

milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga katta e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanadigan zamonaviy demokratik davlat qurishning o‘zini oqlagan xalqaro tajribalarini chuqur o‘rganish va kerakli jihatlarini qabul qilish ham davlat siyosatining ustuvor maqsadlaridan biridir. Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, insonlar, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga xalqiga, ona yurtiga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg‘ularini kadrlar ongiga chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev: “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1]deb yozgan edi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev shu yilning 14 fevral kuni yoshlar bilan muloqot qildilar. Videoselektor shaklida o‘tgan uchrashuvda yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokama etildi.Unda Shaxcning ijtimoiy faollik dapajaci, madaniy yukcalishini ta’minlovchi muhim omil ta’lim va tapbiya ekanligi alohida ta’kidlandi va bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan isloxotlar tilga olindi.

Mamlakat va millat op-nomucini, faxpu-iftixopini, ictiqboli va kelajagini siz yoshlap faoliyaticiz tacavvup qilish mushkul. Shu boicdan mamlakatimiz aholicining 60 foyizini tashkil etgan yoshlap vatanimizning ctpategik maqcadlapini amalga oshipishda katta kuch ekanligini hicobga olgan holda, ulapga bo‘lgan munocabat, hayotga, faoliyatga bo‘lgan qiziqish va yoshlapning ma’naviy qiyofacini maqsadli va manzilli shakllantipish dolzapb muammo bo‘lib qolyotganligini Prezidentimiz alohida ta’kidladilar.

Davlatimiz rahbari keyingi o‘n yil mobaynida yoshlar siyosatiga qaratgan e’tibor mamlakatimiz tarixida yoshlarga munosabatning yangi falsafasini bunyod qildi deyish mumkin. Ular bilan ishlash, g‘amxo‘rlik qilish, rag‘batlantirish va ularga o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun imkon yaratib berishdek keng ko‘lamli qamrlovli yondashuv yurtimiz yoshlarining hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Yosh avlod o‘ziga bo‘lgan bunday e’tibor va g‘amxo‘rlikni anglagan xolda o‘zlarining butun g‘ayrat-shijoatini vatan ravnaqiga sarflay boshlaganini yaqqol ko‘rib turibmiz. Ushbu siyosat, yoshlarga bo‘lgan ushbu yangicha falsafan ing natijalarini har soniya sezib turibmiz. Yoshlar mo‘’jizalar ko‘rsatayotgan sohalarni sanab o‘tirmay faqat eng so‘nggi, dunyoni lol qoldiradigan intellektual soha bo‘lgan shaxmatda erishilayotgan natijalar, Javoxir Sindorovning qo‘lga kiritayotgan yutuqlarini aytishninshg o‘zi fikrimizni isbotlab turibdi. Javohir Sindarov Nomzodlar turnirining to‘rtinchi turida asosiy favoritlardan biri — Fabiano Karuana ustidan muhim g‘alabani qo‘lga kiritdi. 4 imkoniyatdan 3,5 ochko jamg‘argan grossmeyster yakka o‘zi birinchi o‘ringa chiqib oldi[2].

Prezidentimiz yoshlar bilan uchrashuvda yana bir qator yangiliklarni sanab o‘tdilar va ushbu chora-tadbirlar yoshlar siyosatidagi ishlarimizni yangi bir bosqichga olib chiqishiga ishonch bildirdilar. Jumladan, Yoshlar agentligi xorijda o‘qiyotgan har bir talabaga bosh-qosh bo‘ladi. Bilimli yigit-qizlar dunyoning “Top-100” oliygohlariga yuborilib, o‘qish va yashash xarajatlari qoplab beriladi. Chet elda o‘qib kelganlar milliy kadrlar zaxirasiga kiritilib, davlat organlariga tanlovsiz ishga olinadi.

Bundan tashqari, reytingi yuqori xalqaro universitetlarda ilmiy daraja olgan 35 yoshgacha bo‘lgan yosh olimlarga uy-joy uchun 10 yil muddatga 800 million so‘mgacha foizsiz ssuda

[1] Mirziyoev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O’zbekiston:NMIU, 2016. 14-bet.

[2]KUN.UZ. 2026 yil 2 aprel.

ajratiladi. Nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib va sovrindor bo‘lganlar uchun bir martalik pul mukofoti miqdori 5 karra oshiriladi.Energetika, transport, urbanizatsiya, zamonaviy arxitektura, tibbiyot yo‘nalishlarida “El-yurt umidi” jamg‘armasi kvotalari ko‘paytiriladi. Harbiy bilim yurtlarining namunali tinglovchilari uchun “Oliy bosh qo‘mondon” davlat stipendiyasi joriy etiladi.

Kelgusi o‘quv yilidan boshlab o‘quvchilar o‘rtasida muhandislik olimpiadalari va tanlovlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yiladi. G‘olib bo‘lgan bitiruvchi yoshlar texnika oliygohlariga grant asosida o‘qishga kiradi.

Yig‘ilishda yosh avlodda milliy ruhiyatni shakllantirish, g‘oyaviy xurujlar va zararli axborotlardan asrash masalalariga ham to‘xtalib o‘tildi. Tarbiyasi og‘ir bolalarga alohida mehr-e’tibor ko‘rsatish, hayotda o‘rnini topishiga ko‘maklashish zarurligi aytildi.Vatanparvarlik hissini kuchaytirish maqsadida 10-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida “Vatan tayanchi” harakati boshlandi. Unga 300 mingdan ziyod yoshlar qamrab olindi. Endi bu harakat kasb-hunar maktabi, texnikum va xususiy ta’lim tashkilotlarida ham yo‘lga qo‘yilib, 1 million o‘quvchi qamrab olinadi. Ular o‘rtasida turli tanlov va musobaqalar tashkil etiladi. Shuningdek, mahallalarda “Shijoat va g‘ayrat” sport o‘yinlari o‘tkaziladi. G‘olib mahallalarga sport inshooti qurilib, anjomlar bilan ta’minlanadi. “Vatan tayanchi” hamda “Shijoat va g‘ayrat” musobaqalari g‘oliblariga harbiy bilim yurtlariga kirish uchun tavsiya beriladi.

Kadrlar siyosatining ma’naviy-axloqiy jihatlari xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalashda yuksak insoniy fazilatlar, vatanparvarlik, halollik va kasbiy mas’uliyatni ustuvor bilishni anglatadi. Bu jarayon milliy qadriyatlarni ilm-fan yutuqlari bilan boyitish, kadrlar ongiga ezgulik g‘oyalarini singdirish hamda jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni ta’minlashga qaratilishi kerak. Yoshlar bilan ishlaydigan tashkilotlar ularning intellektual salohiyati bilan birga, ma’naviyatini ham yuksaltirish, ularni ezgulik va poklik ruhida tarbiyalashni tashkil etishlari, milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini hurmat qilish, o‘zligini anglagan kadrlarni shakllantirish, yoshlarning o‘z burchiga sodiqligi, vatanparvarligi, xalqparvarligi va korruptsiyaga qarshi murosasizligini kamol toptirish, jamiyat va jamoadagi ma’naviy muhitga zarar etkazadigan xatti-harakatlarning oldini olish, jamoa o‘rtasida sog‘lom raqobat va o‘zaro hurmatni qaror toptirish bilan muvofiq xolda olib borilishi muximdir. Kadrlar tarbiyasida xodimlarni nafaqat moddiy, balki ma’naviy rag‘batlantirish, ularning ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash ham hayotda o‘z samarasini bergan. Bu jihatlar kadrlarning nafaqat malakali mutaxassis, balki yuksak ma’naviyatli inson bo‘lib etishishiga xizmat qiladi. Uchrashuvda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini, bugun uchrayotgan ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun nuroniylar tarbiyasi, jamoatchilik nazorati etishmayotganini ham ta’kidlaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. 2021 yil 19 yanvarda ma’naviyatni yuksaltirish bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektordagi nutqidan.

2. O‘zbekistonning “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonuni 1989 yil 21 oktyabrda – Mustaqilligimiz e’lon qilinishidan taxminan ikki yil ilgari qabul qilingan.

3. Mirziyoev Sh.M. 2021 yil 19 yanvarda ma’naviyatni yuksaltirish bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektordagi nutqidan.

4. Mirziyoev Sh.M.2025 yil 21 oktyabrda sun’iy intellektga bag‘ishlangan videoselekt ordagi nutqidan

5. Mirziyoev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O‘zbekiston:NMIU, 2016. 14-bet.

6. KUN.UZ. 2026 yil 2 aprel.